

IMOM DORAQUTNIY HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

*Nishonova Hadichabegim Oybek qizi
O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi
“Islomshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: Sodiqov Jo‘rabek Sobirboyevich
O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi
“Islomshunoslik va islam sivilizatsiyasini o‘rganish
ICESCO” dotsenti vazifasini bajaruvchisi,
Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Imom Doraqutniyning hadis ilmida tutgan o‘rni va uning ilmiy me’rosi tahlil qilingan. Doraqutniyning hadislarni to‘plash, ularni tasniflash va ilmiy jamoatchilikka yetkazishdagi yondashuvlari o‘rganilgan. Shuningdek, uning metodi va ilmiy faoliyati hadis ilmi rivojida muhim ahamiyat kasb etganligi olib berilgan. Imom Doraqutniyning hadis ilmida tutgan o‘rni, uning ilmiy yondashuvlari va metodikasi hamda hadis tarixida qoldirgan izlari batafsil tahlil qilinadi. Shu bilan birga, uning ilmiy merosi bugungi kun muslimon olimlari tomonidan qanday baholanayotgani ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Imom Doraqutniy, isnod, matn, Sunan, diroyat, rivoyat.

Kirish

Hadis ilmi islam madaniyatida eng muhim sohalardan biri bo‘lib, u Muhammad (s.a.v)ning so‘zлari, amallari va taqrirlarini aniqlash, o‘rganish hamda saqlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu ilм muslimon ummati uchun Qur’oni karimni to‘g‘ri tushunish va sharhlab berishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Hadis ilmining rivojlanishida buyuk muhaddislarning hissasi beqiyos. Shu jumladan, Imom Abu Hafs Umar ibn Ahmad ad-Doraqutniy (hijriy 306–385) hadis ilmida o‘zining ulkan xizmatlari va yuksak salohiyati bilan o‘chmas iz qoldirgan olimlardan biri hisoblanadi.

Imom Doraqutniyning ilmiy faoliyati uning hadislarni yig‘ish, tasniflash va ilmiy jamoatchilikka yetkazishdagi o‘ziga xos metodlari orqali ajralib turadi. U hadislarni isnodlari, matnlari va ularning ishonchliligi bo‘yicha chuqur tahlillarni amalga oshirgan, bu esa uni hadis tanqidi sohasida yetakchi mutaxassis sifatida tanitgan. Doraqutniyning “Sunani Doraqutniy” nomli asari nafaqat uning ilmiy salohiyatini, balki hadis ilmiga qo‘sghan ulkan hissasini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi.

Olimning faoliyati nafaqat hadis ilmiga, balki islomiy ilmiy an’analarni rivojlantirishga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.

Asosiy qism

Abulhasan Ali ibn Umar ibn Ahmad ibn Mahdiy ibn Mas’ud ibn No‘mon Bag‘dodiy Doraqutniy¹ hijriy 306-yil, zulqa’da oyining beshinchisida Bag‘dod shahrining mashhur “Doral-qutn” mahallasida tug‘ilganlar. U zotning oilalari haqida biror bir manbada to‘liq ma’lumot berilmagan. Lekin otasi Umar ibn Ahmad ibn Mahdiy Bag‘dodiy haqida “Doral-qutn” qishlog‘ining ilmlı kishilaridan biri bo‘lganligi, shu bilan birga Doraqutniyning qiro’at shayxlaridan biri ekanligi rivoyatlar va manbalarda ko‘rsatilgan. Shuningdek, u hadis ilmidan birinchi saboqlarini ham otalaridan olgan. Zero, Imom Doraqutniy o‘zinin “Sunan”ida bir necha hadislarni otalaridan rivoyat qilgan.

Imom Doraqutniy e’tiqod borasida salafi solihlarga ergashgan va bid’atchilarning bid’atlaridan uzoqda bo‘lgan. Bu narsa u zotning kitoblari va u kishidan hadis hamda uning ilmi borasida rivoyat qilingan so‘zlarida bilinib turadi. Abulhasan Doraqutniy aqidani o‘z masdari, ya’ni Allohning kitobi va Rasululloh (s.a.v.)ning sunnatlaridan olgan. Imom Doraqutniy aqida borasida bir necha kitoblar yozgan. Jumladan “Kitob ahodisu-s-sifot”, Kitobu-n-nuzul”, “Kitobu-r-ru’ya” kabi kitoblarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Mazkur kitoblarda muallif aqidaviy masalalarni salaflarning yo‘llariga mos tarzda bayon qilgan. Imom Doraqutniy yoshligidan o‘zining ziyrakligi va zehnining o‘tkirliligi va o‘ta kuchli fahmi bilan nom qozongan. Hatto u zot haqida aytilgan ba’zi rivoyatlarda aqli va zakovati insonlarni hayron qoldiradigan darajada o‘tkir ekanligi ta’kidlangan. Xatib Bag‘dodiy u haqida: “O‘z asrining eng yuksak ilm sohibidir”, degan.

Olim hadislarni yod olishda benazir bo‘lgani sabab “Hadis ilmining amiri” degan unvon olgan. Imom Doraqutniy ilm olishni salaflarning sunnatlariga va odatlariga muvofiq avval o‘z shahri olimlaridan hamda shu shaharga ilm safari bilan tashrif buyurgan buyuk shayxlardan o‘rgangan. Yigitlik yoshiga yetgach ilm olish maqsadida turli diyorlarga safar uyushtira boshlagan. Lekin, ahamiyatlisi shundaki, ilm izlab borgan diyorlaridagi ko‘p tolibi ilmlar va hatto ba’zi olimlar ham u zotdan ilm olganlar.

Doraqutniy² o‘zining “Sunan” kitobida zikr qilgan shayxlarining soni ikki yuzdan ortib ketadi. Quyida Doraqutniyning ustozlari bo‘lgan olimlarning ba’zilari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tiladi:

Yahyo ibn Muhammad ibn So’id. Hijriy 228-yilda tavallud topgan. Yoshlari o‘n bir yoshga yetganda hadis yoza boshlagan. 318-hijriy yilda Kufada vafot etgan va o‘sha yerga dafn qilingan. Yahyo ibn Muhammad ibn So’idning ustozlari Muhammad ibn Sulaymon Luvayn, Ahmad ibn Mani’ Bag‘aviy, Savvor ibn Abdulloh Anbariy, Yahyo ibn Sulaymon ibn Nazla, Abu Humom Sakkuniy, Horun ibn Abdulloh Hammol, Abu Ammor Husayn ibn Hurayslardir. Yahyo ibn Muhammad ibn So’id haqida olimlar ko‘plab ijobiy fikrlarni bildirganlar. Jumladan, Ahmad ibn Abdon Sheroziy u haqida: “U hadisni Bog‘andiydan

¹ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot, Zuhd va Raqoqlar. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 130.

² Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Xislatli hikmatlar sharhi. – Toshkent: “Hilol nashr”, 2019. – B. 126.

ko‘p bilar edi. Diroyat borasida biror kishi uning oldiga tusha olmas edi“, degan. Abu Ali Naysoburiy aytadi: “Yahyo ibn Muhammad ibn So‘id davrida fahm borasida undan o‘zadigani yo‘q edi. Fahm esa bizda hifzdan ko‘ra yaxshiroqdir. Yahyo ibn Muhammad ibn So‘id fahm va hifz borasida Abu Dovuddan ustun edi”.

Abu Bakr Naysoburiy. Hijriy 237-yilning boshida Naysobur shahrida dunyoga kelgan. Ilm izlab Iroq, Shom, Misr kabi shaharlarga safar qilgan. So‘ng Bag‘dodni o‘ziga maskan qilib, o‘sha yerda istiqomat qilgan va shu joyda hadis fanidan dars bergan. U 324-yili vafot etgan³. Abu Bakr Naysoburiyning ustozlari Muhammad ibn Yahyo, Ahmad ibn Yusuf Sulamiy, Ahmad ibn Azhar, Ahmad ibn Hafs ibn Abdulloh ibn Hoshim Tusiy, Muhammad ibn Husayn, Hasan ibn Muhammad Za’faronyi, Ahmad ibn Mansurlar hisoblanadi. Abu Bakr Naysoburiy haqida imom Doraqutniyning o‘zi quyidagilarni aytgan: “Shayxlarimizning orasida uning mislini ko‘rmaganmiz. Matn va sanadlarni ham u kabi yodlaganlar yo‘q edi. Matnlardagi ziyodalarni bilar edilar”. Xatib Bag‘dodiy aytadi: “Abu Bakr Naysoburiy fiqhni yaxshi biladigan puxta hofiz va shu bilan bir qatorda rivoyatda o‘ta ishonchli edi”⁴.

Xulosa

Yuqoridagilarga asosan aytish mumkinki, Imom Doraqutniy hadis ilmi tarixida yuksak ilmiy darajasi, o‘ziga xos metodikasi va chuqur tahliliy yondashuvi bilan ajralib turadigan ulug‘ muhaddislardan hisoblanadi. U hadislarni yig‘ish, tasniflash va isnodlarini tekshirish orqali hadis ilmiga ulkan hissa qo‘shtan. Doraqutniyning “Sunani Doraqutniy” kabi muhim asarlari hadislarni ishonchlilik darajasini aniqlashda asosiy manbalardan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Uning ilmiy yondashuvlari va tanqidiy qarashlari hadis sohasiga ilmiylik va xolislik tamoyillarini olib kirdi. Doraqutniyning isnodlar tahliliga katta e’tibor qaratishi hadislar to‘g‘riligini aniqlashda inqilobiy yondashuv bo‘ldi. Bu esa hadis ilmida yuqori sifatli va aniqlik talab qiladigan metodikani shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Imom Doraqutniyning ilmiy merosi nafaqat uning zamondoshlari, balki keyingi davr olimlari tomonidan ham yuksak baholangan. Bugungi kunda uning asarlari hadis ilmida asosiy manbalar qatorida o‘rganilmoqda va ilmiy jamoatchilik orasida qadrlanmoqda. Shunday qilib, Imom Doraqutniyning ilmiy faoliyati hadis ilmi rivojiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan va bu sohaning keyingi taraqqiyotiga yo‘l ochgan.

Foydalanilgan manba adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimov U. Sunnat va Hadis. – Toshkent: Sharq, 2012.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: TIU, 2007.

³ Zahiruddin Bayhaqiy. Tarixi hukamo al-islom. – Damashq: Matba‘a at-taraqqiy, 1946. – B. 132

⁴ Ibn Abbod Rundiy. Sharh al-hikam al-atoiyya. – Qohira, 1988. – B. 36.

3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Oltin silsila. – Toshkent: Hilol nashr, 2013.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. – Toshkent: Hilol nashr, 2008.
5. Imom Buxoriy. Aljome' assahih. – Qohira: Dorushsha'b, 1987.